

Ocharchilik



11:00 / 01.08.2022 2033

Fir'avn tug'yonga kelib g'aflat va qaysarligida qattiq turib olgach, Alloh taolo unga o'zini o'nglab olishi uchun tanbeh bermoqni iroda qildi.

U zot bandalarining kofir holda yurishlariga aslo rozi bo'lmas! Alloh taolo yer yuzida fasodning yoyilishini yaxshi ko'rmaydi. Fir'avn juda nodon podshoh bo'lganligidan pand-nasihatlar unga ta'sir qilmasdi. Eshak to urmagingizcha o'z holatini o'zgartirmay yotaveradi. Alloh taolo Fir'avnni g'aflat uyqusidan qo'zg'atmoqni iroda etdi. Misr yam-yashil diyor! U turli laziz mevalar, don-dunlarga boy o'lka.

Yusuf alayhissalom zamonidagi ocharchilik yillarida uzoq o'lkalar, xususan, Shom va Kan'on aholisi Misrdan don tashib kun kechirganlarini yaxshi bilasiz. Nil daryosi Misr yerlarini sug'orib, ekinlarni suv bilan ta'minlab turadi. U Misrda saodat va xayr bulog'i hisoblanadi. Fir'avn va butun Misr ahli Nilni rizq-ro'z kaliti deb bilishardi. Mana shu sersuv daryo tufayli misrliklar yomg'ir suvi va bundan boshqa narsalardan behojatdirlar. Insonlar aslida rizq-ro'z kalitlari Alloh huzurida ekanligidan g'ofildirlar.

Zero, U zot o'zi xohlagan bandasiga mo'l-ko'l rizq berib ne'matlantiradi. Alloh kimgadir kam, kimgadir ko'p rizq ato qiladi. Nil ham Uning amri bilan qirg'oqlaridan

toshib oqadi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy
Tarjimon Anvar Ahmad